

---

## YOSHLAR SEKTOR RAHBARINING NAZORATIDA



### ZAMONAVIY, SO'NGGI RUSUMDAGI ARAVACHA BILAN TA'MINLANDI

Yurtimizda yoshlarga, ayniqsa, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarga alohida e'tibor qaratilib, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlanib, holidan xabar olish azaliy, insoniy odatlarimizdan biri hisoblanadi.

Prezidentimiz va Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari bo'yicha ijtimoiy himoyaga muhtoj, ishsiz va ijtimoiy faol bo'lmagan yoshlar bilan "Yoshlar" daftarini yuritish orqali ishlash tizimini yanada takomillashtirish, tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sog'lom raqobatni shakllantirish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Hukumat tomonidan chiqarilgan qarorlar ijrosini ta'minlash bo'yicha tuman prokurori Ilhomjon Xodjayevga birlashtirilgan 2-sektor hududidagi qizil toifadagi yoshlarni doimiy holidan xabar olinib, ularni qiziqtirgan yo'nalishlari bo'yicha muammolari o'rganilib, xal etib kelinmoqda.

Shunday qutlug' kunlarda, Qurbon hayiti arafasida tuman prokurori, 2-sektor rahbari Ilhomjon Xodjayev tashabbusi bilan hamkor tashkilotlar hamrohligida Mustahkam do'stlik mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi ijtimoiy himoyaga muhtoj, sog'ligida nuqsoni bo'lgan Mahmudjon Muhamadjonovga Germaniya davlatida ishlab chiqarilgan zamonaviy rusumdagi elektron nogironlik aravachasi topshirildi.

Mahmudjonning onasi bunday quvonchli lahzalarni uzoq kutganligini aytib, mamlakatimizda yoshlarga berilayotgan e'tibordan mamnun ekanligini bildirdi. Ona o'z quvonchini yashirmadi. Yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovon yashashi uchun xizmat qilayotgan barcha rahbarlarni duo qildi.

Zamonaviy rusumdagi "mashina"li bo'lgan Mahmudjonning uzog'i yaqin bo'ladigan bo'ldi.

Fursatdan foydalanib, barcha yurtdoshlarimizni, xalqimizning yaxshi yashashi uchun tolmay xizmat qilayotgan mutasaddi rahbarlarni Muborak Qurbon Hayiti bilan tabriklaymiz.

### YoZYoVON TUMANI HOKIMLIGI AXBOROT XIZMATI

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-07-03 18:07:16